

## AKTIVLAR QADRSIZLANISHI AUDITINING MAQSADI VA VAZIFALARI

*U.A.Shirinov – SamISI, dotsent  
F.Turayeva – SamISI, magistrant*

*Annotatsiya: Maqolada auditning xalqaro standartlari asosida aktivlar qadrsizlanishi auditining maqsadi va vazifalari haqida mulohazalar yuritilgan.*

*Kalit so'zlar: audit, aktivlar qadrsizlanishi, nomoddiy aktivlar, xalqaro standart.*

*Аннотация: В статье рассматриваются цель и задачи аудита обесценения активов на основе международных стандартов аудита.*

*Ключевые слова: аудит, обесценение активов, нематериальные активы, международный стандарт.*

*Abstract: The article discusses the purpose and tasks of asset impairment audit based on international audit standards.*

*Key words: audit, impairment of assets, intangible assets, international standard.*

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizi aholi turmushi farovonligini yaxshilashga qaratilmoqda. Jaxon tajribasi, shuni yaqqol ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda keng miqyosdagi o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning muxim sharti - mamlakatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni, fuqarolar tinchligini ta'minlashdan iboratdir. Bu esa, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida makroiqtisodiy barqarorlikni oshirishni taqozo etmokda.

Iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ularning faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar nomoddiy aktivni sotishda va sotib olishda mul egalari bilan hisob-kitoblarni pul o'tkazish yuli bilan amalga oshirishi lozim, faqta istino ta'rikasida mulk egasi jismoniy shaxs bo'lganda nakd pul bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Shu sababli ushbu xisob-kitoblar ataylab yoki bilmasdan kup xato-kamchiliklarga yo'l qo'yiladigan soha bo'lib, auditoridan tekshiruvda maxsus e'tibor qaratishni talab etadi.

Aktivlar qadrsizlanishi auditini vazifalari bo'yicha turli olimlar turlicha mulohazalar yuritgan.

Tulaxodjayeva M.M., Ilxomov Sh.I., Axmadjonov K.B. va b. "Audit" darsligida quyidagicha ko'rsatilgan:

- nomoddiy aktivlarni hisobga olinishi va ular bilan bog'liq muomalalarni soliqqa tortilishi asosiy me'yoriy xujjatlarga muvofiqligini tekshirish;
- kompaniyaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i (farmoyishi) (nomoddiy aktivlar hisobiga taalluqli qismi)ni tekshirish;
- nomoddiy aktivlar sintetik va analitik hisobi bo'yicha kompaniyada qo'llaniladigan hisob registrlarini tekshirish;

- nomoddiy aktivlarga taalluqli muomalalarni hisobga oladigan dastlabki hujjatlarni tekshirish;

- buxgalteriya hisobotlarini tekshirish.

Korxonada aktivlar qadrsizlanishi hisobga olishning asosiy maqsadi – aktivlarini moliyaviy hisobotlarda qayta tiklash qiymatidan yuqori bo'lmagan bahoda ko'rsatish.

Shundan kelib chiqib aktivlar qadrsizlanishi auditining maqsadi ular bo'yicha muomalalar qonuniy amalga oshirilganligi, to'g'ri baholanganligi va buxgalteriya hisobida to'g'ri yuritilayotganligini tasdiqlash hamda boshqa aktivlar tekshiruvdagi kabi quyidagilarni ta'minlashdan iborat:

-to'liqligi - barcha aktivlar qadrsizlanishining buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilishi, hisobga olinmay qolgan ma'lumotlar yo'qligi;


-korxonadan tomonidan aktivlarning qadrsizlanish belgilari to'g'ri va o'rinli hisobga olinganligi va hisobotlarga ilovalarda to'liq aks ettirilishi;

-aktivlar hisobga olinadigan sintetik schyotlar qoldig'i va oborotlarining tegishli analitik hisob schyotlari qoldiq va oborotlariga mos kelishi;

-schyotlar bo'yicha qoldiq va oborotlarning buxgalteriya hisobi registrlaridan Bosh kitobga va buxgalteriya hisobotlariga to'liq hajmda o'tkazilishi;

-aktivlar kirimi va hisobdan chiqarilish faktlarining barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirilishi;

- aktivlar harakatiga doir barcha muomalalarning buxgalteriya hisobida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilganligini tekshirishdan iborat.



**1-rasm. Aktivlar qadrsizlanishi auditining vazifalari**

Xalqaro standart talablariga ko'ra korxonalarda aktivlar qadirsizlanishi hisobga olishdan maqsad tashkilot tomonidan aktivlarning balans qiymati ularning qoplanadigan qiymatidan ortiq bo'lmasligini ta'minlashdan iborat. Agar aktivning balans qiymati undan foydalanish yoki uni sotish orqali olinadigan summadan ortiq bo'lsa, aktiv o'zining qoplanadigan qiymatidan ortiq summada hisobga olingan bo'ladi. 36-son MHXSGa ko'ra ushbu holat yuz bersa, aktiv qadrsizlangan deb hisoblanadi va mazkur standart tashkilotdan qadrsizlanishdan zararni tan olishni talab etadi. Shuningdek, mazkur standart qadrsizlanishdan zararni qachon qayta tiklanishi lozimligini va tashkilot tomonidan yoritib berilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni belgilaydi.

Qadrsizlanishni hisobga olishning maqsadidan kelib chiqqan holda, Aktivlar qadrsizlanishi Moliyaviy hisobotning muhim elementlaridan biri ekanligini inobatga olib auditning maqsadi aktivlar qadrsizlanishi buyicha hisob-kitoblarning amaldagi qonunlar va qonunosti hujjatlariga mosligi yoki mos kelmasligi to'g'risida auditorlik dalillarini to'plash hisoblanadi.

Auditning maqsadidan kelib chiqid aktivlar qadrsizlanishi auditining vazifalari belgilanadi, ular quyidagilardir;

Audit jarayonida iqtisodiyotimizga xos bo'lgan xalqaro amaliyotda keng foydalaniladigan usullar qo'llaniladi. Auditor audit usullarini mustaqil ravishda belgilaydi va qo'llaydi. Ushbu usullar tarkibi auditning predmeti, maqsadi va vazifalariga bevosita bog'liqdir. Audit nazariyasi va amaliyotida ushbu usullarning quyidagi turlari keltirilgan:

- ✚ solishtirish usuli (iqtisodiy hodisalar, ko'rsatkichlarni o'zaro va biznes-reja bilan solishtirish);

- ✚ gipoteza usuli (hodisalarning sodir bo'lishi, natijalari turli shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda o'rganiladi. Bunday usul ko'pincha "yashirin iqtisodiyot" natijalarini aniqlashda keng foydalaniladi);

- ✚ tahlil va sintez usuli (audit obyekti bo'lgan ma'lum ko'rsatkich omillar asosida o'rganiladi, mavjud ichki imkoniyatlar aniqlanadi);

- ✚ taftish usuli (korxonaning faoliyatiga to'liq baho berish uchun barcha operatsiyalar tasdiqlovchi nazoratidan o'tkaziladi);

- ✚ inventarizasiya usuli (korxonadagi huquqiy aktivlar va majburiyatlarning buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga monandligi tekshiriladi);

- ✚ kalkulyasiya usuli (bajarilgan ishlar, ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi, umumiy ovqatlanish korxonalarida esa taomlarning sotilish bahosi aniqlanadi);

- ✚ ekspertiza usuli (hujjatlarning realligini, haqqoniyligi, mahsulotlarning sifat ko'rsatkichlari laboratoriya yo'li bilan aniqlanadi);

- ✚ buxgalteriya schyotlari va ikkiyoqlama yozuv usuli (korxonada aktivlari va majburiyatlarining harakati hamda qoldiqlari buxgalteriya hisobi schyotlari orqali tekshiriladi);

- ✚ balans usuli (korxonadagi hodisalar, jarayonlarni rasmiylash-tirish, dastlabki ma'lumotlarni umumlashtirish orqali nazorat qilish).

Xulosa qilib aytganda aktivlar qadrsizlanish auditi o'tqazish auditning muhim obyektlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham uni maqsadi va vazifalarini aniq belgilab olish dolzarb masalalardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Исманов И.Н. Узоқ муддатли активларнинг бухгалтерия ҳисоби ва аудити методологиясини такомиллаштириш масалалари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент 2009 й.
2. Пўлатов М. Номоддий активларнинг ҳисоби ва аудитини такомиллаштириш масалалари. И.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация иши. Тошкент 2006 й.
3. М.Б.Ухажова/ Справедливая стоимость и ее использование в бухгалтерском учете: состояние и перспективы/автореферат,
4. Ширинов, У. А. (2021). Improvement of methodology of auditoral assessment of segmentary accounting and reporting reality in committees providing communication services. *Экономика и социум*, (5-2), 642-647.
5. Д.В.Тихомиров/ Обесценение активов: проблемы отсенки и отражения в финансовой отчетности/ Финансовый сектор экономики.
6. Дўсмуратов Р.Д. Аудит асослари. Дарслик.-Т.:ЎМЭ, 2003.612 б
7. Ширинов, У. А., & Нарзуллаев, Н. А. (2022). Молиявий мажбуриятлар аудитини такомиллаштириш. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 810-813.
8. Ширинов, У. А., & Нарзуллаев, Н. А. (2022). Молиявий мажбуриятлар аудитини методологик асослари. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 814-817.